



INGLIZ VA O'ZBEK ADABIYOTDA OY VA QUYOSH TIMSOLLARINING MAZMUN VA MOHIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6409314>

Axmadaliyeva Gulmira Marufjon qizi

Farg'ona Davlat Universiteti

Ingliz tili o'qitish metodikasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada o'zbek, rus va ingliz tillarida "Simvolizm" atamasining paydo bo'lishi, "Oy" va "Quyosh" ramziy ifodalarining badiiy adabiyotda qaysi ma'nolarda qo'llanilishi haqida so'z yuritilgan.

Annotation: The article discusses the emergence of the term "symbolism" in Uzbek, Russian and English language, and the meanings of the symbolic expressions "Moon" and "Sun" in literature.

Аннотация: В статье анализируются возникновение термина «символизм» в узбекском, русском и английском языках, а также значения символических выражений «Луна» и «Солнце» в литературе.

Tayanch so'z va iboralar: ramz, ramziy iboralar, simvolizm, tasvir, Oy va Quyosh ramzlari

Key words and expressions: symbol, symbolic expressions, symbolism, image, symbols of the Moon and the Sun.

Ключевые слова и выражения: символ, символические выражения, символика, образ, символы Луны и Солнца.

Jahon va O'zbek adabiyotida badiiy adabiyotning asosiy komponentlaridan biri hisoblangan ramz va ramziy ifodalarning ahamiyati juda katta. Simvolizm atamasi XIX asr oxirlarida Fransuz adabiyotida, XX asrda Amerika va Rus adabiyotlarida namoyon bo'lishni boshladi. N. Kostomarov xalq og'zaki ijodi poetikasi bo'yicha shug'ullangan folklorshunoslar ichida birinchi simvol bilan aniq fanlardagi simvol tushunchasini, ular o'rtaidagi farqni to'g'ri hal qilib bergen bo'lsa, o'zbek adabiyotshunosligida bu masalaning to'la ravshanlashishiga erishishda tadqiqodchi Asqarali Sharopovning 1978 yilda G'afur G'ulom nomidagi "Adabiyot va san'at" nashriyotida chop etilgan "Olamlar ichra olamlar" nomli kitobi muhim qiymatga ega bo'ldi.

Ma'lumki, biron-bir hodisa mohiyatini shartli ravishda ifodalovchi narsa va so'z simvol yoki ramz deb ataladi. A.Potebnya «Fikr va til» nomli tadqiqotida ramziy ifodalarni «tasavvurning qayta ishlanishi» deb ataydi.



Badiiy adabiyotni tadqiq qilar ekanmiz, undagi ijodkorlar tomonidan ishlatingan badiiy obrazlarning turfa ekanligiga duch kelamiz. Misol uchun, ayyorlikni ko'z bilan ko'rib bo'lmaydi. Lekin tulkining juda ayyor jonivor ekanligi ma'lum va uni ko'rsa bo'ladi. Shu bois, badiiy adabiyotda tulki ayyorlik ramzi sifatida qabul etilgan. Burgut, arslon, ohu, bulbul, tuya va boshqa jonivorlarning timsollarini ham ramziy ma'noda qo'llash mumkin. Bu kabi ramziy ifodalarni biz xalq og'zaki ijodining ertak janrida uchratamiz. Adabiyotda hayvonlar timsolidan tashqari tabiat jismlari sanalmish Oy va Quyosh ramzlarining kiritilishi asarlarga o'zgacha pafos baxsh etadi.

O'zbek adabiyotida Quyosh ramziy timolidan foydalangan ijodkorlar safiga G'afur G'ulomni kiritsak bo'ladi. G'afur G'ulomning "Yangi yil qo'shiqlari" nomli she'ridagi ushbu satrlarni kuzatsak:

Mayda aks etmishdir sahar kulgusi,
Quyoshga rang berur yuzlarning tusi,
Dimog'da ertangi bahor atri bor,
Bizga quchoq ochar g'olib kelgusi.

Yuzlardagi qizillikning quyoshga ham rang bera olishi, dimog'larda ertangi bahorning atri bo'lishi singari mubolog'ali ifodalar botinida ramziy ma'nolar ham mujassamlashgandir. She'rdagi keyingi tasvirlar fikrlarimiz to'g'ri ekanligini ko'rsatadi:

Alyorlar boshlangiz, baxt bo'lsin soqi,
Qadahlardek to'la dil ishtiyoqi!
Quyosh paymonadek har ko'ngil ravshan,
Uning umri kabi umrlar boqiy.

G'afur G'ulom har ko'ngilning ravshanligini "quyosh paymonadek" deya ta'riflaydiki, mumtoz she'riyatda "paymona" may ichiladigan kosa yoki idish ma'nosini bildirishini nazarda tutsak, shoir sharob qizilligini quyoshga mengzab, sharob to'la idishni esa "quyosh paymona" deya ta'riflayotganligi anglashiladi. Demak, quyosh yorug'ligi hamisha tevarak – atrofni nurga burkab, yashnatib turganidek, baxt soqiylilik qilgan davrada sarmast kishining ko'ngli ravshan bo'lmos'hing'i mantiqiy dalillanadi.

Jaxon adabiyotida Quyosh ramzining ifodasini Shekspir she'riyatida ham ko'rishimiz mumkin.

Shunday bo'lsa ham, mening quyoshim erta tongda porladi,
Mening peshonamda barcha zafar ulug'verligi bilan;
Ammo, afsuski, u bir soat meniki edi,
Mintaqa buluti uni endi mendan yashirdi.

She'rdagi "Quyosh" ga ishoralar Shekspirning o'g'li Gamnetning 1596 yilda o'limiga mish-mishlar sifatida talqin qilingan.

Bundan tashqari, Quyosh (quyosh) belgilari ilohiy tasvirlarni va uning kuchini ko'taradi. Bu ajablanarli emas, chunki ota-bobolarimiz tomonidan issiqlik va hayot manbai



sifatida ibodat qilingan. Folklordagi yorug'lik ochiq, qizil, mehribon va boshqa deb ataladi. Rus yozuvchisi Dostoyevskiyning fikriga ko'ra, Quyosh hayot ramzi hisoblanadi.

Shuningdek, turkiy adabiyotning asoschilaridan bo'lgan Alisher Navoiyning "Xamsa" dostonida ham Oy va Quyosh jismlarining ramziy ifodalariga guvoh bo'lamiz:

Shabistonida tug'di bir yangi oy,

Yangi oy yo'qki, mehri olamoroy. (1)

Tushunilishi qiyin, izohtalab so'z va birikmalar ma'nosini aniqlab olamiz: shabiston so'zini ikki ma'noda tushunish mumkin: kechasi va yotoqxona, tug'di – tug'ildi, yangi oy – Farhod nazarda tutilmoxda, mehri olamoroy – olamni yorituvchi quyosh. Ularga tayangan holda quyidagi mazmunni uqish mumkin: Kechasi (yotoqxonada) yangi oy tug'ildi, uni yangi oy demakki, olamni yorituvchi quyosh edi.

Shuningdek, Navoiy hazratlarining "Hiloliya" qasidasida ham Oy ramziga alohida urg'u berib o'tilgan. Ushbu qasidaga ko'ra, Hilol osmonda paydo bo'lgan yangi oydir. Shoir yangi davlat, yangi hokimiyat boshlanganini shu yangi oyning paydo bo'lismiga nisbat beradi. So'z o'yinlari, badiiy tasvir vositalari orqali o'zining yangi hokimiyatga ta'zimi va sadoqatini izhor etadi. (2)

Oyning ramziy ma'noda qo'llanilish holatini rus adabiyotining namoyondalaridan biri Chexovning asarlarida kuzatishimiz mumkin. Oy qorong'u ishtiyoqning ramzi sifatida harakat qilishi mumkin. Ba'zi bir adabiyotlarda esa Oy poklik, befarqlik, o'zgaruvchanlik va irodallik ramzi sifatida keltirilgan. Biroq, to'lin oy doira bilan bog'liq, ya'ni mukammallik va yaxlitlik ramzi bilan.. Shunday qilib, Chexovdagi oy taqiqlangan tuyg'ularni itarib, xiyonatni rag'batlantiradi. Rus adabiyotida Oyna belgilari oy va mifologiyaga tegishli: sharaflik, xiyonat, o'lim bilan bog'liq,

O'zbek adabiyotida Hamid Olimjon o'z ijodini Oy timsoli bilan boyitgan.

Tun qa'rige cho'kkani yerni xuddi ko'rpgaga o'rangan odamday osmonga o'randi tarzida tasavvur etmoq uchun xayol juda baland parvoz etishi kerak. Qarang, tunda yer ko'rinxaydi. Xuddi shuningdek, tunda kunduz ham ko'zga tashlanmaydi. Til bilan ifodalash u yoqda tursin, xayolda tasavvur qilib bo'lmaydigan shu murakkab holatni Hamid Olimjon sehrli bir ustalik bilan tasvirlay olgan. "Holbuki tun" she'rida «Ko'zlarmida yonar uchqunlar, Zilol suvgaga oy edi sirdosh» degan mo'jizakor tasvirlarni uchratishimiz mumkin.

Masalan, Farruxiy Siistoniyning bir g'azalida shoir tashxis va jonlantirish san'ati vositasida fazoviy jism Oyning insonga xos xususiyatlarini ifodalab, uni Quyoshga oshiq tarzida tasvirlaydi:

Z-oftob judo bud moh chandin shab,

Hamedavid ba gardun bar oftob talab.

Hamida gasht zi hijronu zard gashta zi g'am,

Nizor gashta zi ishqu gudoxta zi taab (4)



Yuqoridagi baytlarda Oyning Quyoshga oshiq bolib, sevib qolishi, ma'shuqaning ishq hijronida oshiqning g'amu g'ussalarga mubtalo bo'lish voqeasi bayon etiladi. Oy o'z ma'shuqasi ishqida yonishi natijasida, ko'plab uqubatlarga duchor bo'ladi va rangi za'faron bo'lib, bemor odamga aylanadi. Mazkur baytlarda shoir tashxis va jonlantirish san'ati vositasida tabiiy hodisa sanalmish Oyning tutilishi va bir necha kun insonlar nazaridan chetda qolishini yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlaydi. G'azalda Oy o'z ma'shuqasi vasliga etib shodu xurram bo'lib, ishq sururidan mast bo'lishi ham tasvirlangan. Buning natijasida Oyning o'z ma'shuqasi Quyosh diydoriga etishganidan boshqa fazoviy jismalar, ya'ni yulduzlar ogoh bo'lib, Quyosh va Oy xursandchiligiga qo'shilib, ularga hamrohlik qiladilar:

Chu oftobtalab nazdi oftob rasid,
Nishot kardu tarab kardu bud joi tarab.
Furo,, nishast bar oftobu ravshan kard
Ba ro'i ravshani o' chashmi tirai chu shab.
Chu mohi dilshuda ba oftobi ro'y
Guzor kard bad-in dar hame du ro'zu du shab .

Farruxiy Siistoniy o'zining yuqoridagi g'azalida jonlantirish san'ati asosida Quyosh, Oy va bir qator osmon jismalari – yulduzlarni jonlantirib, ularga insoniy xususiyatlar va sifatlarni berib, Oy misolida ishq yo'lida g'aribu notavon oshiq timsolini yaratadi. G'azalda Oy o'z mashuqasi diydorini ko'rolmay xasta va ozor chekkan inson qiyofasida namoyon bo'ladi. Mashuqasi Quyosh vasliga yetishganidan keyin Oy ikki kunu ikki tun uning didoriga to'ymay u bilan bazmu jamshid qilib, atrofida parvona bo'lib, visol oqshomlaridan bahramand bo'ladi.

Osmon yulduzları Oyning bu ishidan ogoh bo'ladi va Oy buning natijasida hijolat chekadi. Atoqli shoir Farruxiy Siistoniy g'azalda Oyning tutilish holati voqeasini bayon etish jarayonida mufassal tashxis turidan foydalanadi. Shoir tabiatning oddiy bir hodisasini lirik timsollar bilan ifodalab, o'quvchi qalbini o'zining poetik mahorati bilan to'lqinlantiradi.

Adabiyotda simvolizm va ramziy ifodalarning qo'llanilish doirasi juda ham ko'p. Ramziy tasvirlardan keng tarzda foydalanish badiiy asarlarning yanada jozibali va maftunkor bo'lishiga, o'quvchining e'tiborini yanada kengroq jalb etilishiga hissa qo'shadi. Oy va Quyosh tasvirlarining qay ma'noda qo'llay olinishiga qarab, biz yozuvchining badiiy mahoratiga tan beramiz. Zeroki, Oy va Quyosh ramzları turli ijodkorlarning asarlarida keng ma'nolarda ishlatilingan va keng doirada izohlab berilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jiddlik. J.13. -T.: Fan, 1997.
2. Navoiyning ijod olami. Maqlolar to'plami. – T.: Fan, 2001



3. Zehni T. San'ati suxan. – Dushanbe: Adib, 2007, 396 bet.
4. Qayumov Nodir, Sharq mumtoz adabiyoti shoirlari ijodida jonlantirish va tashxis san'ati (X-XII asrlar fors-tojik shoirlari ijodiyoti misolida), 74-bet.